



JALOLIDDIN MANGUBERDI MO‘G‘ULLARGA QARSHI KURASHINING TARIXIY AHAMIYATI

IIV Xorazm akademik litseyi Tarix fani o‘qituvchisi

Matyaqubov Elyorbek Amonboyevich

Annotatsiya. Ushbu tezisda Mo‘g‘ullar imperiyasining Xorazmshoxlar davlatiga qarshi olib borgan harbiy harakatlari, sulton Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ullarga qarshi kurashi va uning tarixiy ahamiyati masalalari tahlil qilingan

Kalit so‘zlar. Alouddin Muhammad, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Chingizxon, O‘tror, Samarqand, Buxoro, Gurganch, G‘azna, Termiz.

Abstract. This thesis analyzes the military actions of the Mongol Empire against the Khorezm Shahs, the struggle of Sultan Jalaluddin Manguberdi against the Mongols and its historical significance

Key words: Alouddin Muhammad, Jalaluddin Manguberdi, Temur Malik, Genghis Khan, O‘tror, Samarkand, Bukhara, Gurganch, Ghazna, Termiz

XIII asrda Xorazmshoxlar davlati va Mog‘ullar imperiyasining keng harbiy yurishlari natijasida ikki davlat hududlari bir biriga tutashib ketadi. Dastlab bu davlatlar bir birlarining kuch qudratini bilish va sinash maqsadida bir nechta marta elchi almashadilar. Ammo, O‘tror noibi Inolchiq tomonidan Chingizxonning savdo karvonini qirib tashlanishi ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarning yomonlashuviga, oqibatda mo‘g‘ullarning xorazmshoxlar davlatiga bostirib kirishiga baxona bo‘ladi. Bu aslida Chingizxon tomonidan o‘ylab topilgan xiyla bo‘lgan. Urush oldidan Alouddin Muhammad harbiy kengash chaqiradi va unda bir qator takliflar o‘rtaga tashlanadi, ammo pirovardda boshqa takliflar rad etilib, qarorni Xorazmshohning o‘zi qabul qildi. Unga binoan qo‘shin katta-kichik



shaharlarga tarqatib yuborildi va har bir shaharga o'zini o'zi himoya qilish vazifasi yuklatildi. Ushbu no'to'g'ri qabul qilingan qaror natijasida keyinchalik O'tror, Buxoro, Samarqand, Urganch, Termiz kabi yirik hududlar qo'ldan ketadi. Bu orada Alouddin Muhammad plevrit kasalligidan vafot etadi va taxt vorisi qilib to'ng'ich o'g'li –Jaloliddin Manguberдини tayinlaydi. Ana shunday taxlikali bir vaziyatda siyosiy kurash maydoniga Jaloliddin Manguberdi kirib keladi. Turkon xotun Jaloliddin Manguberdi hokimiyatini tan olmaydi va taxtga Turkon xotunning ukasi Xumorteginni o'tqazadilar. Ular Jaloliddinga qarshi suiqasd uyishtadilar va bundan habar topgan Jaloliddin Temur Malik hamda 300 nafar suvoriy hamrohligida Gurganchni tashlab chiqib, shahzodalik paytidagi mulkining markazi–G'aznaga yo'l oladi. Chingizxon Jaloliddin hamda shahzodalarning Gurganjga qaytganidan xabar topgach, qo'shinining bir qismini Xorazm bilan Xuroson o'rtasidagi cho'lning janubiy chegarasini nazorat ostiga olish, pistirmada turib, Xorazmdan siqib chiqarilgan Jaloliddin va uning ukalarini qo'lga olish uchun yuborgan edi. Bu qo'shin Marvdan to Niso yaqinidagi Shahristongacha bo'lgan qismini o'rab olgandi. Jaloliddin va uning sodiq hamrohlari Niso yaqinida cho'ldan chiqishdi. Bu yerda mo'g'ullarning 700 suvoriydan iborat otryadi ularni kutmoqda edi. Jaloliddin Niso yaqinida o'zining 300 ta askari bilan mo'g'ullarning 700 kishilik otryadini mag'lubiyatga uchratadi. Bu g'alaba mo'g'ullarning "afsonaviy qudrati" haqidagi mish-mishlarga chek qo'yadi.

Jaloliddin Nishopurga kelgandan so'ng bir oy davomida yaqin atrofdagi hokim va amirlarga chopar yuborib, qo'shin to'plash harakatida bo'ladi. Ammo mo'g'ullar bundan xabar topib, uni ta'qib eta boshladilar. 1221-yil fevral oyida Jaloliddin nochor G'aznaga yo'l oldi. Nasaviyning ma'lumotiga ko'ra, ular yo'l yo'lakay Qandahor qamali bilan mashg'ul bo'lgan mo'g'ul qo'shinini mag'lubiyatga uchratishadi. Jaloliddin G'aznaga 1221-yilda yetib keldi. Bu yerda xalajlar sardori Sayfiddin Ag'roq, Balx hokimi A'zam Malik, afg'onlar rahnamosi Muzaffar Malik, qarluqlar boshlig'i Hasan–ularning har biri 30 minglik qo'shin bilan Jaloliddin



bayrogʻi ostida birlashdilar. Shu erda Jaloliddin Amin Malikning 318 qiziga uylanib, qarindoshlik va ittifoqchilik rishtalari mustahkamlandi. U qoʻshinini Gʻaznadan olib chiqib, Parvon tomonga qarab yuradi. Yoʻlda moʻgʻullar Valiyon qalʼasini qamal qilayotganlaridan ogoh boʻlib, ularga hujum qiladi. Chingizxon Jaloliddinga qarshi oʻzining nomdor sarkardalaridan biri Shiki Xutuxu boshchiligidagi 45 minglik qoʻshin yuborgan edi. Ikki kun davom etgan bu jang moʻgʻullarning yakson etilishi bilan yakunlandi. Bu gʻalaba Movarounnahr va Xuroson uchun juda ahamiyatli boʻladi. Moʻgʻullarning “ilohiy”, “yengilmas” qudrati haqidagi afsonalarga butunlay chek qoʻyiladi. Gʻalaba taʼsirida Saraxs, Marv, Hirot va boshqa Xuroson shaharlarida moʻgʻullarga qarshi isyon boshlanadi. Buxoroda esa mahalliy aholi moʻgʻullarni siqib chiqarishga erishadi. Kuchayib borayotgan Jaloliddin katta xavf ekanligini anglagan Chingizxon Jaloliddinga qarshi katta qoʻshinga oʻzi rahbarlik qiladi. Parvon jangining Juvayniy keltirgan tavsifidagi moʻgʻullar va Jaloliddinning harbiy usullari haqidagi maʼlumotlar diqqat talabdir. Tarixchining yozishicha, jangning birinchi kuni nihoyasiga yetganidan soʻng tunda Shiki Xutuxu oʻz askarlariga kigizdan odam haykalini yasashni buyuradi. Ertasi tongda jang boshlangan mahalda Jaloliddinning jangchilari moʻgʻul qoʻshinining saflari ortganini koʻrib, dushman madad olibdi degan xayolga boradilar. Ammo Jaloliddin ularga dalda berib, jangovar kayfiyatni qayta vujudga keltirishga erishadi. Sulton suvoriylari otlaridan tushib, dushmanni oʻq-yoylardan nishonga oladi. Moʻgʻullar chekina boshlagan paytda butun qoʻshin Sulton farmoniga binoan nogʻoralarni chalib, otga minadi va birdaniga hujumga oʻtadi, moʻgʻul qoʻshini qochishga tushadi. Shu asnoda ular qoʻqqisidan orqaga qaytib, Sulton qoʻshiniga tashlanadilar va qariyb 500 kishini yerga qulatadilar. Parvon jangida qoʻlga tushirilgan oʻljani boʻlib olish chogʻida Jaloliddinning lashkarboshilari oʻrtasida nizo chiqib, Amin Malik Sayfiddin Agʻroqning boshiga qamchi bilan uradi. Agʻroq bilan birga Aʼzam Malik va Muzaffar Malik oʻz qoʻshinlarini olib Jaloliddinni tark etishdi. Jaloliddinning ularni qaytarish yoʻlidagi barcha urinishlari zoya ketadi.



Jaloliddinning ne chog‘li jiddiy, xatarli kuch ekanligiga ko‘zi yetgan Chingizxon butun qo‘shinini to‘plab, G‘azna tarafga yuradi. Jaloliddin Chingizxonning o‘zi boshchiligidagi butun mo‘g‘ulnlashkari yaqinlashayotganidan xabar topgach, Sind (Hind) daryosidan kechib o‘tish, kuch to‘plab, kurashni davom ettirish maqsadida G‘aznani tashlab chiqib ketdi. Lekin Sind bo‘yida kemalar hozirlanayotgan bir paytda Chingizxon qo‘shini orqadan yetib keladi. 1221-yil 25-noyabr kuni tarixda eng mashhur bo‘lgan janglardan biri boshlanadi.

Chingizxonning lashkari Amin Malik qo‘l ostidagi o‘ng qanotga hujum qiladi va joyidan to‘zg‘itib, aksarini halok etadi. Amin Malik jonini omon saqlab qolish uchun Peshavor tarafga qochadi. Mo‘g‘ullar chap qanotni ham mag‘lub etadilar. Sulton markazda 70 nafar jangchi bilan tongdan to kun yarmigacha qattiq turib jang qildi. U chapdan o‘ng qanotga ot qo‘yar, o‘ng qanotdan markazga hamla qilar va har hamlada bir necha kishini qulatardi. Ammo Chingizxon qo‘shini soat sayin ko‘payar, Sultonga javlon urish uchun maydon torayib borardi. Sulton yurak-bag‘ri kuyib, ko‘zlarida yosh bilan farzandlari va jigarporalari bilan vidolashadi. So‘ng u zahiradagi otini keltirishni buyuradi. Unga minib yana bir bor ofat ummonida nahang misoli javlon uradi, mo‘g‘ul qo‘shinini chekinishga majbur etib, jilovni orqaga buradi va sovutni yechib 319 tashlab, otga qamchi uradi. Qirg‘oqdan turib 10 gaz yoki undan ham ortiq masofadagi daryoga ot soladi. Dovyurak arslondek daryodan kechib o‘tib, najot sohiliga yetadi. Chingizxon uning daryodan kechib o‘tganini ko‘rib, otini qirg‘oqqa yeldirib keladi. Sulton bir shamshir, nayza va qalqon bilan daryodan o‘tgan edi. Chingizxon va jamiki mo‘g‘ullar hayratdan qo‘llarini og‘izlariga qo‘ydilar. Chingizxon bu holatni ko‘rib, o‘g‘illariga yuzlangancha xitob qildi: “Otaning o‘g‘li shunday bo‘lmog‘i lozim! Suv va olovning ikki girdobidan qutulib, najot sohiliga yetdimi, undan beadam ishlar va bexisob tahlikalar tug‘ilajak”. Nasaviyning ma’lumotlariga qaraganda, ushbu jangda Jaloliddin hatto dushman qo‘shinining markaziga yorib kirishga muvaffaq bo‘lgan. Xorazm qo‘shini mo‘g‘ullarni qurshovga olayotgan bir paytda “bahodir” deb



ataluvchi saralangan jangchilardan iborat pistirmadagi tuman (10 ming kishilik bo‘linma) jang taqdirini hal etadi. Jang vaqtida Jaloliddinning 7–8 yoshlardagi o‘g‘lini tutib olib Chingizxonning ko‘z o‘ngida qatl qiladilar.

Jaloliddin Sind daryosidan kechib o‘tganidan so‘ng qolganqutgan jangchilarini to‘plab, Shimoliy Hindiston hududidagi bir qancha davlatlar hukmdorlari bilan munosabat o‘rnatishga harakat qildi. Ular bilan bo‘lgan qator janglarda qo‘li baland kelgan bo‘lishiga qaramay, bu yerda muqim o‘rnashish, ittifoqchilar topish mushkul ekanligini anglab, u yerdan Eronga, 1224- yili esa Ozarbayjonga kelib, uni zabt etdi. Shu vaqtdan e‘tiboran Jaloliddinning Ozarbayjon, Eron, Iroq, Gurjiston va Rum hududlaridagi faoliyati boshlanadi.. Jaloliddin mo‘g‘ullarga qarshi kurash olib borish maqsadida ukasi G‘iyosiddin Pirshoh, Bag‘dod xalifalari az-Zohir, so‘ngra al-Muntasir, Gurjiston malikasi Rusudana va boshqalarga murojaat qiladi. Lekin mo‘g‘ullar qasosi hamda Jaloliddin hokimiyati kuchayishidan cho‘chigan ko‘pchilik musulmon hukmdorlari u bilan ittifoqqa rozi bo‘lmaydilar. Natijada Jaloliddin Gurjistonni ketma-ket ikki marta bosib oladi. Ozarbayjon, Shirvon, Gurjiston Jaloliddinning o‘limiga qadar uning qo‘lida qoladi. 1227-yil kuzida mo‘g‘ullarning Eronga kirib kelish niyatlari borligini bilgan Jaloliddin ularga qarshi jangga tayyorgarlik ko‘radi. Mo‘g‘ullarning o‘sha yili yuborilgan 2000 kishilik qo‘shini tor-mor etilib, ulardan 400 tasi Isfahonda namoyishkorona jazolanadi. 1227-yil 5-sentabrda Eronni zabt etish uchun kelgan Taynal no‘yon qo‘shini bilan Isfahon yaqinida xal qiluvchi jang bo‘lib o‘tadi. Jang payti G‘iyosiddin Pirshoh xoinlik qilib, Luristonga chekinsada, Jaloliddin baribir bu jangda g‘olib bo‘ladi. Ushbu jangda Taynal no‘yon “Haqiqatan ham o‘z davrining bahodiri va tengqurlarining dohiysi ekan”! – deb uning jasoratiga qoyil qoladi. Xatto mo‘g‘ul xoni Tulu sulh taklif qilganda ham Jaloliddin buni rad etadi. 1229-yil Jaloliddin ukasi G‘iyosiddinni afv etadi. Biroq tez orada ukasi yana fitnachilarga aldanadi va bu safar uning o‘zi qurbon bo‘ladi. Natijada Jaloliddin fitnachilarni jazolab, Kirmonda tinchlik o‘rnatadi. Xorazmshoh Jaloliddin Kirmon, Fors, Fors Iroqi, Ozarbayjon, Gurjiston va unga



tutash yerlarda katta davlat barpo etishga muvaffaq bo'ladi. Bu orada ayrim musulmon amirlari mo'g'ullar bilan birlashib, Jaloliddinga qarshi ittifoq tuzishadi. Jaloliddin va ittifoqchilar qo'shini o'rtasidagi birinchi jang 1230-yil 7-avgustda Arzinjon yonida tekisligida bo'lib o'tdi. Jaloliddin ittifoqchilarni yengadi, ammo ularni oxirigacha ta'qib etmaydi. 1231-yil avgustda Amid yo'lida Jaloliddinga mo'g'ullar hujum qilib qoladi. Uni 15 chog'li mo'g'ul 320 askarlari ta'qib qildi.

Jaloliddin sheriklaridan ajrab, Mayafariqin yaqinida Ayn addar qishlog'iga keladi va kurdlar qo'liga tushadi. Bu voqea quyidagicha sodir bo'ladi: "Shundan so'ng sulton toqqa ko'tariladi. Tog' yo'llarida esa kurdlar talonchilik maqsadida pistirmalar qurgan bo'ladi. Ular, odatdagidek, sultonni ham tutib olishadi va xuddi boshqalarni talagani kabi uning ham bor-yo'g'ini tortib olishadi. Ular Jaloliddinni o'ldirishmoqchi bo'lganda u yo'lto'sar bosqinchilarning boshlig'iga maxfiy ravishda o'zining sulton ekanligini bildirib, al Malik al-Muzaffar Shahobiddin huzuriga olib borsa evaziga mukofotlanishini bildiradi. Qaroqchilar yo'l boshchisi bunga rozi bo'ladi va Jaloliddini chodirda, xotinini oldida qoldirib, o'zi toqqa ot olib kelish uchun ketadi. Bu odam chodirda yo'q paytida bu yerga boshqa bir g'alamis, qo'liga nayza ushlagan kurd kirib keladi. Keyin Xilotda o'lgan ukasining xuni uchun Jaloliddinga shunday nayza sanchadiki, boshqa nayza sanchishga zarurat qolmaydi. Shu tariqa mo'g'ullarga qarshi mardonovor kurashgan qahramon taqdiri ayanchli yakun topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. Matyoqubov K. tarjimasi. –T: O'zbekiston. 2006.
2. Toshev Nuryog'di. Jaloliddin Manguberdi. –T: Abu matbuot konsult. 2011.



3. Masharipov Qudrat. Jaloliddin Manguberdi - Buyuk vatanparvar sarkarda. T. Navro‘z. 2019.
4. Ibrohim Qafes o‘g‘li. Xorazmshohlar davlati tarixi. Turkchadan Nazarbek Rahim tarjimasi. –T:Navro‘z. 2016.
5. Bunyodov Ziyo. Anushtegin Xorazmshohlar davlati (1097-1231).T: G‘ofur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1998.\